

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura  
mutaxassisligining malaka talablari**

**Toshkent**



**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 7 » \_\_\_\_\_ o‘g‘ \_\_\_\_\_ dagi 334 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. .

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarimoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70310102 – <i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4.	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i .....	10

## **1. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil. Fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan talabaga "magistr" darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat (lar) - "Iqtisodchi" (tadqiqotchi, pedagog) kvalifikatsiyasi yozilgan "diplom" ilovasi bilan beriladi.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

**1.1.1. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) – iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislik** bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, mutaxassislikka oid kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi;
- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati sub'ektlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyot sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya organlarida boshqaruv jarayonlari;
- iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- tarmoqlar va sohalar iqtisodiyoti sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni, mirko va makro iqtisodiy makonda iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili jarayonlari.
- tarmoqlar va sohalar korxonalarida investitsion va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish;
- iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining rivojlanish jarayonlari.

**1.2.3. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;
- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;
- konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

**1.2.4. 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:**

- 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik

texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohalarning miqdor va sifat me'zonlari, iqtisodiy tizim va ob'ektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

- barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

- iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

- budjet tizimi va budjet parametrlari, budjetdan tashqari turli jamg'armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

- moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;

- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish

- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ekotizim vositalarini rivojlantirish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohalari korxonalarida yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, iqtisodiy sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistrlar mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistrlar mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrnlarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistrlar mutaxassisligi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

### **2.4. Kvalifikatsiya: "Iqtisodchi" (tadqiqotchi-pedagog)**

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, raqobatbardoshlik, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, tarkibiy o'zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o'sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, aralash iqtisodiyot, iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o'sish, ish haqi, agrar munosabatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, mulkchilik munosabatlari, investitsion muhit, o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.



**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQLIGAN:**



**Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Rektor  **K. Sharipov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**



Direktor  **Sh. Yakubov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
milliy universiteti**

Rektor  **I. Madjidov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**"Lotos Gold" Qo'shma korxonasi**



Bosh direktor  **Yo. Yuldashev**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**"O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va  
muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi**

Direktor  **M. Kalonov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
**60310100 – Iqtisodiyot (“yashil” iqtisodiyot) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va**  
**70310102- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi**  
**malaka talablari va o‘quv rejalari ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim**  
**muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent shahri

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti rektori I.Madjidov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.Sharipov, “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori M. Kalonov, “Lotos Gold” qo‘shma korxonasi Bosh direktori Y. Yuldashev birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejalari mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. 60310100 – Iqtisodiyot (“yashil” iqtisodiyot) ta’lim yo‘nalishi

2. 70310102- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi

Yuqoridagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste‘molchilari hamda turdosh oliy ta’lim muassasalari tomonidan qo‘yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining “Oliy ta’limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug‘i hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlangan malaka talablari va o‘quv rejalari ishlab chiqish bo‘yicha turdosh oliy

ta'lim muassasalari hamda asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
milliy universiteti rektori



I. Madjidov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori



K. Sharipov

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"  
ilmiy-tadqiqot markazi direktori



M. Kalonov

"Lotos Gold" qo'shma korxonasi Bosh direktori



Y. Yuldashev